

BankID haqida

BankID tadbirkorlar, banklar, tashkilotlar ha davlat tashkilotlari uchun internet tarmog'ida o'z shaxsini tasdiqlash hamda shu orqali turli jismoniy shaxslar bilan shartnomaga kirish uchun imkoniyat beruvchi shaxsni tasdiqlovchi elektron hujjat hisoblanadi. BankID pasport, haydovchilik guvohnomasi va boshqa jismoniy shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar bilan tenglashtirsa bo'ladigan shaxsni tasdiqlovchi elektron hujjat hisoblanadi.

Banklar shaxsni tasdiqlovchi elektron hujjatni taqdim etadi

Barcha shved shaxsiy raqamiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar o'z banklari orqali BankID shaxsni tasdiqlovchi elektron hujjatni olishlari mumkin. BankID qaysi bank orqali olinganidan qat'iy nazar bir xil qiymatga ega hamda bir xil tarzda ishlatiladi.

BankID jamiyatda kech foydalaniladi

Quyidagi banklar jismoniy shaxslarga BankID taqdim etadi: Danske Bank, ICA Banken, Ikano Bank, Handelsbanken, Länsförsäkringar Bank, Nordea, SEB, Skandiabanken, Sparbanken Syd, Swedbank och Ålandsbanken. Birgalikda ushbu banklarning 8 million miqdorida internet-bank mijozlari mavjud bo'lib, ular BankID dan internet- va mobil telefon-bank xizmatlaridan, davlat tashkilotlari, munisipalitetlar bilan muloqotda hamda shaxsiy tadbirkorlikda foydalanishadi. 2017 yilgi hisobga ko'ra, BankID dan taxminan 2,5 milliard holatlarda foydalanilgan.

Hozirgi kunda shaxsni tasdiqlovchi elektron hujjatlaridan foydalanuvchilarning juda ko'pchiligi BankID ni tanlashadi.

Yana boshqa BankID taqdim etuvchilardan biri Telia hisoblanadi.